5-SHO‘BA: AHOLI GEOGRAFIYASI, GEODEMOGRAFIYA, URBANIZATSIYA VA MIGRATSION JARAYONLARNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

GULISTON SHAHRIDA MIGRATSIYA JARAYONLARINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI

Komilova Nilufar Karshiboyevna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,
Davlat va korporativ strategiyalar kafedrasi professori, Geografiya fanlari doktori
Orcid ID: https://orcid.org/0009-0005-0848-717X
Joniqulov Behzodbek Ravshan o‘g‘li
Guliston davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrasi tayanch doktoranti
Orcid ID: https://orcid.org/0009-0007-5492-5278

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Guliston shahrida migratsiya jarayonlarining dinamikasi va hududiy xususiyatlari iqtisodiy-geografik jihatdan tahlil qilingan. 1991-2025-yillarda ko‘chib kelish, ko‘chib ketish va migratsiya saldosi ko‘rsatkichlari o‘rganilib, migratsiyaning shahar demografik rivojlanishiga ta’siri baholangan. Shuningdek, qishloq–shahar migratsiyasining aholi va mehnat resurslari shakllanishidagi o‘rni, yangi turar joy massivlarining migratsion oqimlarni jalb etishdagi ahamiyati hamda Gulistonning ma’muriy, iqtisodiy va ijtimoiy xizmatlar markazi sifatidagi roli yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *migratsiya,shahar, migratsiya saldosi, ichki migratsiya, qishloq–shahar migratsiyasi, urbanizatsiya, aholi dinamikasi, mehnat resurslari, migratsion oqim, turar joy massivlari.*

Kirish. Shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida migratsiya muhim demografik va hududiy omillardan biri hisoblanadi. Aholining shaharga ko‘chib kelishi mehnat resurslari, iste’mol talabi va iqtisodiy faollikning ortishiga xizmat qilsa, aholining ko‘chib ketishi shahar mehnat salohiyati va demografik barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi [1].

Urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi hudud iqtisodiyotining ixtisoslashuvi, shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning shakllanishi, aholining tabiiy va mexanik harakati bilan uzviy bog‘liq. Ayniqsa, migratsiya shahar aholisi soni va tarkibining o‘zgarishi, mehnat resurslarining shakllanishi hamda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuviga ta’sir etuvchi muhim omillardan biridir[2].

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Ichki va tashqi migratsiya shaharlarning demografik, mehnat va iqtisodiy salohiyatini shakllantiruvchi asosiy hududiy jarayonlardan biri bo‘lib, migratsiya oqimlarining hajmi va yo‘nalishi shahar aholisi soni, mehnat resurslari hamda xizmatlar va infratuzilmaga bo‘lgan talabning o‘zgarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi[3]. Shu nuqtayi nazardan, migratsiya jarayonlarini hududiy jihatdan baholash Guliston shahrining aholi dinamikasi, mehnat bozori va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mavjud o‘zgarishlarning geografik omillarini aniqlash imkonini beradi. Respublikamizdagi ichki ko‘chishlarning asosiy sabablaridan biri aholining qishloq joylardan shahar joylarga o‘tib joylashishidir[4]. Bu holat Guliston shahrining migratsion jarayonlarida ham yaqqol namoyon bo‘lib, shaharga ko‘chib keluvchilarning yarmidan ko‘prog‘ini qishloq joylardan kelgan aholi tashkil etadi. Mazkur holat Gulistonning mintaqadagi mehnat, ta’lim, xizmat ko‘rsatish va ma’muriy markaz sifatidagi mavqeyi bilan bog‘liq holda, shaharda aholi va mehnat resurslarining hududiy jamlanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Muhokama va natijalar. So‘nggi yillarda Guliston shahrida aholi sonining izchil o‘sishi kuzatilib, mazkur jarayon tabiiy ko‘payish va migratsiya oqimlari ta’sirida shakllanmoqda. 2025-yil boshida shahar aholisi 100 ming kishidan oshib, Guliston Sirdaryo

viloyatida ushbu ko‘rsatkichga ega yagona shaharga aylandi. Bu holat shaharning demografik salohiyati va urbanizatsiya ko‘lamining ortib borayotganini ko‘rsatadi. Aholi soniga ko‘ra shaharlar tasnifida Guliston 100–250 ming kishilik “katta shaharlar” toifasiga kirib, viloyat markazi sifatidagi iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yanada kuchaymoqda.

1-jadval

Guliston shahrining migratsion ko‘rsatkichlari[5]

Yil	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi
1991	2465	3448	-983
1995	1995	997	-998
2000	1350	1727	-377
2005	1242	1897	-655
2010	930	1447	-517
2015	1228	1146	+82
2020	935	1714	-779
2025	1828	1335	+493

1-jadval ma’lumotlari Guliston shahrida migratsiya jarayonlarining davrlar bo‘yicha o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatmoqda. 1991-yilda migratsiya saldosining –983 kishini tashkil etishi ko‘chib ketish jarayoni ustun bo‘lganini, 1995-yildagi ijobiy saldo esa shaharning aholi uchun tortish markazi sifatidagi rolini aks ettiradi. 2000–2010-yillarda manfiy saldo qayta kuzatilib, bu davrda migratsion chiqib ketish kuchaygan. 2015-yilda saldo ijobiy qiymatga o‘tgani bilan, 2020-yilda yana –779 kishiga tushgan. 2025-yilda esa ko‘chib keluvchilar sonining ortishi hisobiga migratsiya saldosi +493 kishini tashkil etgan. Mazkur tendensiya so‘nggi davrda Gulistonning ma’muriy, iqtisodiy va xizmat ko‘rsatish funksiyalari bilan bog‘liq migratsion jozibadorligi kuchayayotganini ko‘rsatadi.

2018-yildan boshlab Guliston shahriga tutash agro-landshaftlar va o‘zlashtirilmagan yer maydonlarida yangi turar joy massivlarini barpo etish ishlari jadallashdi. Ushbu jarayonning yirik namunalaridan biri shaharning g‘arbiy qismidagi bo‘sh yer maydonlarida 2021-yilda shakllantirilgan “Buyuk kelajak” mahallasidir. 2017–2021-yillar davomida mazkur hududda 34 ta 5 va 7 qavatli turar joy binosi, 1 ta umumta’lim maktabi, 3 ta maktabgacha ta’lim muassasasi, 1 ta o‘quv markazi, 1 ta yirik ishlab chiqarish korxonasi hamda 10 ga yaqin savdo shoxobchasi barpo etilib, foydalanishga topshirildi. Natijada yangi turar joy hududi shakllanib, 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra mahallada 3,9 mingdan ortiq aholi istiqomat qilmoqda. Mazkur jarayon Guliston shahrining g‘arbiy yo‘nalishda hududiy kengayishi va yangi urbanizatsiya o‘choqlarining shakllanayotganidan dalolat beradi.

Hozirgi kunlarda Guliston shahrining turli hududlarida yangi turar joy obyektlarini barpo etish jarayoni jadal davom etmoqda. Jumladan, Taraqqiyot, Namuna va Ahillik mahallalarida faol qurilish ishlari olib borilib, mazkur hududlarda 9 qavatli ko‘p qavatli turar joy binolari bunyod etilmoqda. Ushbu jarayon shaharning mavjud hududlarida qurilish zichligining ortishi bilan bir qatorda, turar joy fondining yangilanishi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvini ham ifodalaydi.

Guliston shahrida yangi turar joy hududlarining o‘zlashtirilishi migratsion oqimlarning shakllanishida hududiy “tortish” omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uy-joy fondining kengayishi, ko‘p qavatli binolarning barpo etilishi va ular bilan birga maktab, bog‘cha, o‘quv markazi hamda savdo obyektlarining tashkil etilishi shaharda yashash uchun zarur shart-sharoitlarni yaxshilab, yangi aholini qabul qilish imkoniyatini kengaytirmoqda. Ayniqsa, bo‘sh yer maydonlarining turar joy hududlariga aylantirilishi migratsiyaning faqat mavjud

mahallalar doirasidagi qayta taqsimlanishi emas, balki shaharga tashqaridan aholi jalb etilishiga ham zamin yaratmoqda.

Guliston shahriga aholining migratsion ko‘chib kelishida Sirdaryo viloyatining qishloq hududlari muhim manba hisoblanadi. Bu holat, avvalo, shaharning viloyat miqyosidagi ma’muriy, iqtisodiy va ijtimoiy xizmatlar markazi sifatidagi mavqeyi bilan bog‘liq. Xususan, Guliston, Mirzaobod, Boyovut, Sayxunobod, Sirdaryo va Xovos tumanlaridan shaharga yo‘nalgan migratsiya oqimlarida hududiy yaqinlik, mehnat bozoridagi imkoniyatlar, ta’lim va tibbiyot xizmatlarining jamlanishi, shuningdek, transport qulayligi muhim o‘rin tutadi. Shaharga ko‘chib keluvchilarning yarmidan ortig‘i qishloq joylardan kelayotganligi qishloq–shahar migratsiyasining Guliston shahrining demografik va urbanizatsion rivojlanishidagi ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi.

Mazkur jarayon shahar aholisi sonining ortishi bilan birga, mehnat resurslarining hududiy qayta taqsimlanishiga ham olib keladi. Natijada ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga qo‘shimcha ishchi kuchi jalb qilinadi, iste’mol talabi kengayadi hamda uy-joyga bo‘lgan ehtiyoj ortadi. Aholi sonining ko‘payishi, o‘z navbatida, ta’lim, tibbiyot, transport va boshqa ijtimoiy infratuzilma obyektlariga bo‘lgan talabni kuchaytiradi.

Shu nuqtayi nazardan, Guliston shahridagi migratsiya jarayonlarini faqat aholining hududiy ko‘chishi sifatida emas, balki aholi, mehnat resurslari, iqtisodiy faoliyat va infratuzilmaning hududiy qayta taqsimlanishini belgilovchi kompleks iqtisodiy-geografik jarayon sifatida baholash mumkin. Shaharning ma’muriy markazlik funksiyasi, iqtisodiy faoliyatning jamlanishi, xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarining kengligi va yangi turar joy hududlarining shakllanishi uning migratsion jozibadorligini oshiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Natijada Guliston shahri atrofdagi qishloq hududlari bilan demografik va iqtisodiy aloqalari tobora kuchayib borayotgan hududiy markaz sifatida shakllanmoqda.

Xulosa: Guliston shahrida migratsiya jarayonlari aholining demografik o‘sishi, mehnat resurslarining shakllanishi va hududiy urbanizatsiya jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi. Tahlillar 1991-2025-yillarda migratsiya saldosining o‘zgaruvchan bo‘lganini, 2025-yilda esa +493 kishiga yetganini ko‘rsatdi. Shaharga ko‘chib keluvchilarning yarmidan ko‘prog‘ining qishloq hududlaridan kelishi Gulistonning ma’muriy, iqtisodiy, ta’lim va xizmat ko‘rsatish markazi sifatidagi hududiy ahamiyatini aks ettiradi. Yangi turar joy massivlarining shakllanishi va mavjud hududlarda ko‘p qavatli uy-joy qurilishining jadallashuvi esa migratsion oqimlarni qabul qilish imkoniyatini kengaytirib, shaharning hududiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu jihatdan, Guliston shahrida migratsiyani boshqarish uy-joy, mehnat bozori va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bilan uzviy holda olib borilishi muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. De Haas H. Migration and Development: A Theoretical Perspective // *International Migration Review*. – 2010. – Vol. 44, No. 1. – P. 227–264. – DOI: 10.1111/j.1747-7379.2009.00804.x.

2. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 86 b.

3. UN-Habitat. (2023). *Mainstreaming Migration and Displacement into Urban Policy: A Guide*. Nairobi: UN-Habitat.

4. Asomov G., Nabixonov M., Safarov I. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug‘rofiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994 39-b

5. Sirdayo viloyati statistika boshqarmasi malumoti